

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



Toshkent davlat  
stomatologiya instituti

## TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

Toshkent davlat stomatologiya  
instituti

[www.tsdi.uz](http://www.tsdi.uz)

“Tibbiyot oliy ta'lif muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzARB muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lif muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lif muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlgan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

**Toshkent - 2023**

## **TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**O'rال Murodovich Abilov**

Falsafa fanlari doktori, Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada talaba-yoshlarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish zarurati, tibbiyot olyi ta'lim muassasalarida mantiq fanini o'qitish dolzarbliji masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafa, mantiq, metafizika, fizika, tafakkur, til, mulohaza, xulosa, kreativ, ong, ongsizlik.

## **ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА**

**Урал Муродович Абилов**

Доктор философских наук, профессор кафедры Общественных наук  
Ташкентской медицинской академии

### **АННОТАЦИЯ**

В статье подчеркивается необходимость формирования логического мышления студентов и важность преподавания логики в медицинских вузах.

**Ключевые слова:** философия, логика, метафизика, физика, мышление, язык, рассуждение, вывод, творчество, сознание, бессознательное.

Avvalo, falsafiy mushohada qilish uchun har qanday shaxs mutaxassisligidan qa'tiy nazar egallagan mutaxassiligi sohasi bo'yicha yetarli bilim bilan albatta mantiqiy fikrlash, to'g'ri mushohada qilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Shundagina qabul qilingan qaror to'g'ri bo'lishi mumkin va bu xususiyat shu jumladan tibbiyot sohasi xodimlarigada o'ta zarur va taalluqlidir.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, mantiq bu tabiat va insonni bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limotdir. Tibbiyot sohasi mutaxassisini insonni tabiatdan tashqari holatda o'rgana olmaydi va davolay ham olmaydi.

Tibbiyot sohasiga oid yo'naliш bo'yicha Fan olami tarixidan ma'lumki, tibbiyot sohasining btun jahon tan oлgan allomalaridan biri hisoblangan Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uchta katta yo'naliшda metafizika, mantiq va fizikada o'z aksini topgan.

Ma'lumki, metafizika – ilohiyot, vujud va mavjudot dunyosining boshlanishi, tuzilishi, tarkibi haqidagi masalalarini yoritadi. Fizika. – tabiatshunoslik masalalari, jism, moddani o'rganish bilan bog'liq bo'lган barcha masalalarini o'z ichiga oladi. Mantiq – to'g'ri fikrlash san'ati, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Ibn Sino mantiqni to'qqiz qismga bo'ladi. Mantiq turli fikr yuritishning, xatolardan saqlanishning qoidalarini o'rgatadi, ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarga o'tish va aksincha yo'llarini ko'rsatadi.

Mantiqning fikrlashga munosabati grammatikasining nutqqa, she'r nazariyasining she'riyatga bo'lган munosabatiga uxshaydi. Mantiq ilm-fan bilan shug'ullanuvchi har qanday inson uchun eng zaruriy ilmlardan biridir.

Ibn-Sino isbotlashning mantiqan qat'yligini va hissiy bilishdagi mohiyatni o'zi yashab o'tgan davr vaziyatidan kelib chiqib ma'qullaydi. Ammo tashqi prinsiplarni faqat bevosita birinchi aql sifatida ilohiy yorituvchi shaklida qabul qilish mumkin - deb hisoblaydi.

Vaqtlar davomida jahon ilmiy maydonida mantiq fanida mantiqiy semantiqa va pragmatika, modal va mantiqning turli tizimlari faol ishlab chiqilganligi bejizga emas edi. Chunki ijtimoiy va texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanish sr'ati kun tartibiga arxaik, mifologik, pralogik, affektiv, obrazli, vizual, intuitiv, kreativ, ongsizlik va boshqa tafakkurlarni tadqiq qilish masalasini qo'ydi va bu borada fan texnika taraqqiyoti negizida juda katta mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi o'zgarishlar talabini yuzaga keltirdi va keltirmoqda.

Mantiq va uning tibbiyot uchun ahamiyati va zaruratligi nimada degan masalaga e'tiborni qaratsak, mantiq qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar, tafakkur shakillari tuzilish va to'g'ri fikrlashning qonunlarini o'rgataishi bilan alohida e'tiborga molikdir.

Tafakkur shakli fikrlarning ma'lum mazmunini ifodalash maqsadida bog'lanish va tuzilishidir. Milliy tillar turli-tuman bo'sada, ularning tuzilish shaklida umumiylig bor. Har qanday muhokama fikr predmetini ko'rsatuvchi sub'ekt va fikr predmetining belgisini ifodalovchi predikat orqalgina amalga oshishi mumkin. Mulohazaning tuzilishi "S – R" shaklida bo'ladi. Mantiq fani ana shu tuzilishning, fikrlarning o'zaro bog'lanish usulining qonun –

qidalarini o'rgatadi. Mantiqiy shakllar (tafakkur shakllari), ularning tuzilishi esa xilma-xil bo'ladi.

Muhokamalarning mantiqiy to'g'riliqi fikrlarining muhim, zarur bog'lanishlariga (tafakkur qonunlariga) amal qilish bilan bog'liq. Aks holda mantiqiy xatoga, noto'g'ri mulohozaga yo'l qo'yamiz. Ana shu qonunlarni mantiq fani o'rgatadi. Bu tibbiyotda bemorga qo'yiladigan aniq tashxisni qo'yishda juda ham muhim aos va omil bo'lib xizmat qiladi.

Mantiq fani tufayli fikrlashimizning tuzilish shakllarini, qonun qidalarini, usullarini o'rganamiz. Bu bizning fikrlash madaniyatimizning o'sishiga yordam beradi. Ularni bilish mulohazalarimizda noaniqlik, noizchillik va ziddiyat bo'lmasligiga yordam beradi. O'zining va boshqalarning mulohazalarini mantiqan to'g'ri tahlil qilaolmaslik ilmni to'g'ri tushunib olishga, to'g'ri amaliy faoliyatga halaqit beradi. Mulohazalarni to'g'ri ifodalash, to'g'ri tushinib olish va hatto fikrlashni ajratish faqat bevosita muloqotlar uchungina zarur emas. Ilmiy bilmlarni chuqur tizimli tushunib olish uchun, fanlarning rivojlanishi uchun ham mantiq fani katta ahamiyatga ega. Fanlardagi turli tushunchalar, muhokamalar, xulosalar mantiqiy shakl tuzilishiga, qoidalariga, to'g'ri fikrlash qonuniga mos bo'lsa muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Buni biz tibbiyot fani va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish misoldi tushuntirishga quyida birmuncha harakat qilamiz:

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tibbiyot yutuqlarini keng joriy qilishga, kasallarga tashxis qo'yishning sifatini yaxshilashga bog'liqdir. Tashxisning sifati kasallikkarni bilishning yangi instrumental - texnik va boshqa metodlari kashf qilinishi bilangina belgilanmaydi. Bunda shifokorning mantiqiy fikrlash layoqati muhim o'rinn tutadi. Tashxisning eng yangi ximik-biologik va texnikaviy metodlari qo'llanilishi tufayli kasallik haqida ma'lumotlar miqdori oshmoqda, shifokorning fikriy faoliyat va jarayoni murakkablashmoqda, shu jihatdan tashxisning to'g'ri, aniq, mantiqan asoslangan bo'lishi nihoyatda zarur. Bunday sharoitda albatta qanday davolash usulini qo'llash yuqori samara berishiga ishonch, qo'yilgan tashxisning qanchalik darajada aniqligiga bog'liq bo'lib, tibbiyot xodimining mantiq fanini chuqur egallashni tibbiyot fani va tibbiy hizmat rivoji talab qilmoqda.

Elementar mantiqning tibbiy tashxis uchun katta ahamiyatini qadimgi va hozirgi zamonning ko'zga ko'ringan tibbiyot namoyondalari qayta-qayta ta'kidlashgan. Gippokrat Xodisalardan metodik yo'l bilan xulosa chiqaruvchi shifokorlarni maqtagan. Galen mantiqiy tafakkur prinsiplarini bilmagan olimlarni qattiq tanqid qilgan. Ibn Sino

bolaligidayok mantiqni chuqur o'rghanib, bu fan rivojiga ma'lum hissa qo'shgan. Hozirgi davrda mantiq tibbiyot fanining rivoji uchun muhim ehtiyojga aylangani butun dunyoga ma'lum.

Nazariya va amaliy tibbiyotda mantiqiy hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ko'p. Mantiqni to'laqonli bilmaslik oqibatida turli xil chigalliklar, tashxis ko'yishda hatolar kamaymayapti. Biz shulardan ayrimlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tashxis amaliyotida ayniyat qonuniga amal qilish tushunchalarning konkretligi va aniqligini talab qiladi. Tibbiyotda shunday atamalar (terminlar) ko'pki, ular ko'pincha ma'lum aniq mazmunga ega emas va o'zboshimchalik bilan ularning mazmuni tez-tez o'zgartiriladi. Masalan, kardiopatiya, gematopatiya, differensiallashmagan kollagenoz, diensefal sindrom, distireoz, umumiyo ateroskleroz, tonzillokardial sindrom, miopatoz kabi keng qo'llanilayotgan terminlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Klinik tibbiyotning bunday terminlarga mahliyo bo'lishi tashxisni mavhum, noaniq, tumanli qiladi. Masalan, "Tonzillokardial sindrom" tashxisida kamida uchta kasallik yashirinib yetibdi. Ular klinik manzarasiga ko'ra o'xshash, ammo patogenezi, kechishi, oqibatiga ko'ra farq qiladigan 1)tonzillogen neyrotsirkulyar distoniya, 2) tonzillogenno- miokardiodistrofiya, 3)tonzillogen yuquqli-allergik miokardit va hakozolar

Yoki "surunkali pnevmoniya" termini uning saksondan oshiq ko'rinishini o'z ichiga oladi. Bu va bunga o'xshash ko'pgina atamalar to'g'ri klassifikatsiya qilinishga muhtojdir.

Shunday kilib, ayrim tibbiy tushunchalarning so'zdagi ifodasining xilma-xilligi tufayli tashxis qo'yishda ayniyat qonuni tez-tez buzilganligi, ya'ni bir so'z turli kasalliklarni ifodalaydi va aksincha bir kasallik turli so'zlarda ifodalanadi. Bunday sharoitda ayniyat qonunini bilish juda ham zarur.

Ziddiyat qonuni muhokamaning izchil bo'lishini, ziddiyatli, bir-birini inkor qiluvchi fikrlarni bartaraf qilishni talab qiladi. "Nimanidir bir vaqtida ham tasdiqlash, ham inkor qilish mumkin emas", deydi Aristotel. Mantiq qonunlarini bilmaslik oqibatida shifokor amaliyotida ziddiyat qonunini buzish tez-tez uchrab turadi. Misol uchun bir kasallik tarixidan parcha keltiramiz: Kasalni klinikaga yo'llashda davolovchi vrach yozadi: "Tashxis noaniq. Bir tomondan kasallikning klinik kechish hususiyatlari (og'riqlarning xarakteri va takrorlanish davri, keskinlashish mavsumi) 12-barmoqli ichak yarasi borligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, kasallik avj olgan davrda 2 rentgenolog tomonidan 4 marta o'tkazilgan rengenoskopiya bu tashxisni aslo tasdiqlamagn. Oshqozonda rentgenologik o'zgarishlar yo'qligi "surunkali gastrit" borligiga

qarshi. Rentgenologning so'nggi xulosasi: "Oshqozon va 12-barmoqli ichakning organik kasalliklari aniqlanmadi. Klinik va rentgenologik ma'lumotlarning keskin mos kelmagani uchun kasalga gastroduodenoskopiya tashxisi qo'yildi".

Shifokorning bu muhokamasi noaniq va ziddiyatlidir. U 12-barmoqli ichak yarasi kasalligini ham tan oladi, ham inkor qiladi. Buning ustiga surunkali gastrit borligiga yo'l qo'yadi.

Tibbiy tafakkur amaliyotida yetarli asos qonuni buzilishiga tez-tez duch kelamiz. Tabiblar, folbinlar, amaliyoti natijalari aksariyat holatlarda real mantiqiy asoslanmagan taqqoslashga "dalillashtirilganligi" uchrab turadi.

Ayniqsa, dastlabki tashxislarda bu qonunning buzilishi ko'p uchraydi. Bunday holatlar kasal bilan birinchi suhbat va ko'rik asosida qo'yilgan tashxislarda ko'proq uchraydi. Bu holat qo'yilgan tashxislar uchun aslo yetarli emas. To'g'ri kasalliklarda yetarli asoslash turlichadir. Teri, teri va ko'zning ayrim kasalliklarida vrach ko'rigi yetarli asos bera oladi, ikkinchilarida-laboratoriya tadqiqotlari kerak, uchinchilarida-tashxisning maxsus murakkab metodlari (masalan, sariqda funksion biopsiya) talab qilinadi.

Ba'zan sindromi - o'xshash patologiya va inkor qilishning o'zi (masalan, gipertoniyada) yetarli asosdir.

Shunday qilib, mantiq qonunlariga amal qilish shifokorni to'g'ri fikrlashga, to'g'ri va haqiqiy tashxis qo'yishga olib keladi. Mantiq qonunlari shifokor muhokamasining barcha bosqichida amal qiladi.

Tushuncha to'g'ri fikrlash va to'g'ri tushunishda dastlabki asosdir. Tushuncha haqida mantiq ta'limotini bilish ilmiy tadqiqot uchun ham, davolash uchun ham juda zarur. Mantiq tushunchalarning aniq mazmunini talab qiladi. Noaniq atamalarda har xil kasallik, uning u yoki bu belgilari yashirinib yotishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, ko'pgina yuqumli kasalliklarning manzarasi o'zgarmoqda, ularni darsliklarda o'rgatuvchi turli kasalliklar bo'yicha tushunchalar esa ko'p hollarda o'zgarmasdan qolmoqda. Demak, hozirgi zamon tibbiyoti yutuqlari aks etgan tushuncha, atamalarni shifokorlar doimiy ravishda o'zlashtirib borishlari yanada dolzarbdir va buning uchun mantiqiy fikrlash hamda ularni tahlil qilish qobiliyatlarining oshib borishi zamon talabidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, O'zbekistonda umuman olganda falsafa va uning tarkibiy ob'ekti sifatida bo'lgan mantiq fani borasidagi tadqiqatlarning asosiy, istiqbolli yo'nalishlari, bir tomonidan, jahon falsafasi rivojlanishi tendensiyalariga mos kelishi, ikkinchi tomonidan esa vatanimiz falsafasi real imkoniyat, manfaatlari va

ehtiyojiga ham mos kelishini ta'minlash, falsafada hozirda bo'layotgan o'zgarishlarning leytmotivi birinchi navbatda mantiqiylik nuqtai nazaridan inson va insonparvarlik hamda tabiat, zamonaviy texnologiyalar muammosidir va shunday bo'lib qolayotganligi real voqyelik ekanligiga e'tiborni qaratmoq lozimdir.

## REFERENCES

1. Норқулов, С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари: Монография. Тошкент: Navro 2015 (2015).
2. Норкулов С. Д. Новое общественное сознание в условиях независимого развития Узбекистана// Т.57. Тенденции формирования науки нового времени. – 2015. – С. 84.
3. Норкулов С. Д. Жамият ижтимоий онгидаги ўзгаришларнинг кишилар маънавий ҳаётига таъсири масалалари //Ёш олимлар ахборотномаси. – 2022.
4. Норкулов Д., Норкулов С., Бобоёрова Н. Фуқаролик жамияти шаклланиши жараёнида ижтимоий онгни ўзгаришлар. – 2021.
5. Норкулов С. Д., Атамуратова Ф. С. Диалоговая технология в образовательном процессе //Сборник тезисов и докладов научно-практической конференции к 100-летию Ташкентской медицинской академии. – С. 74.
6. Норкулов Д. Т. Ҳуқуқий онг ва маънавий тарбия//Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 41-44.
7. Norkulov D. et al. Methods for increasing the effectiveness of teaching history. – 2021.
8. Абилов У. Миллий-маданий меъросимиз бўлган давлат тили ҳақида мулоҳазалар: дис. – 2022.

## CONTENTS

## MUNDARIJA

1. Narkulov, S. D. (2023). TALABA-YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY FANLARNING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 6-9.
2. Назаров, К. Н. (2023). ИЖТИМОЙ ФАНЛАР ТИЗИМИ ВА ТАЪЛИМИНИНГ ЯНГИЛАНИШ ДИАЛЕКТИКАСИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 10-16.
3. Балтабаева, А. Ю. (2023). НАВЫКИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА В ВУЗАХ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 17-21.
4. Мухамедова, З. М. (2023). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ ГУМАНИСТИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 22-31.
5. Отамуратов, С. (2023). ВАЖНАЯ РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 32-36.
6. Власова, В. Н. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 37-39.
7. Abilov, O. (2023). TIBBIYOT OLYGOHI TALABALARIDA MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 40-45.
8. Камилов, Ф. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ТИЗИМИДА ИЖТИМОЙ ИШ: ТАЖРИБА ВА АМАЛИЁТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 46-49.
9. Himmet, K. (2023). HEALTH CARE ENTREPRENEURSHIP: SUCCESS STORIES AND CASE STUDIES. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 50-54.
10. Шолудченко, И. Е. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК В УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЕ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 55-59.
11. Дуйсенова, С. М. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 60-65.
12. Norqulov, D. T. (2023). AXLOQSHUNOSLIKDA KASBIY AXLOQ MASALALARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 66-72.
13. Otamurotov, S. (2023). GLOBALLASHUV JARAYONIDA FANNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 73-78.